

## “QOBUSNOMA” ASARI NASHRLARIGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR

**To‘xtayeva Sojida Murot qizi**

Buxoro davlat universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (tillar bo‘yicha )

2-kurs magistranti

E-mail: [s.m.tuxtayeva@buxdu.uz](mailto:s.m.tuxtayeva@buxdu.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Unsur al-Maoliy Kaykovusning “Qobusnoma” asari yaratilish tarixi, asarning nashrlari va nashrlar o‘rtasidagi ba’zi farqli jihatlar haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** "Qobusnoma", nashr, qo‘lyozma, tarjima, nusxa, sharh, tanqidiy matn.

**Abstract:** This article is about the history of the book and the publications and the difference between publications of the book which is named "Kobusnoma" by Unsur al-Maoliy Kaykovus.

**Keys word:** "Kobusnoma", press, handwritten, translation, copy, definition, critical text

O‘rta asr Sharq mutafakkirlarining yirik vakili bo‘lmish Unsur al- Maoliy Kaykovus o‘ziga xos yo‘nalishga ega ijodkor sanaladi. Kaykovusning hayoti va ijodi butun dunyo sharqshunoslarining, Sharq va G‘arb olimlari va pedagoglarining diqqatini hamisha o‘ziga tortib kelgan. A. Ye. Krimskiy, V. V. Bartold, Ye. E. Bertels va boshqa sharqshunos olimlar esa Kaykovusning "Qobusnoma " sini o‘rganish ustida tadqiqot ishlarini olib borganlar. Uning "Qobusnoma" kitobi hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, shu bois bu durdona asar turli yillarda turli tadqiqotchi va tarjimonlar tomonidan tarjima qilinib bir necha bor nashr qilingan. Fikrimizning dalili sifatida kitobning turli yillarda chop etilgan nashrlari nazar solsak:

Xususan, 1432-yilda Merjomak Ahmad ibn Ilyos tomonidan turk tiliga, 1702-1705-yillarda Hasan Poshsha Nazmizoda Murtozo tomonidan yana turkchaga, 1786-1787-yillarda Muhammad Siddiq Rashidiy tomonidan uygʻur tiliga, 1881-yilda esa Qayum Nosiriy tomonidan tatar tiliga tarjima qilingan. Bundan tashqari asar Gʻarb sharqshunoslarining ham diqqat markazida boʻlib, XIX asrdayoq ingliz, nemis, fransuz tillariga tarjima qilinib chop etildi. Natijada "Qobusnoma" 1881-yilda nemis tilida, 1886-yilda fransuz va rus tillarida kitobxonlar qoʻliga yetib bordi. Kitob Eronda sakkiz marta nashr etiladi. Manbalarda aytilishicha, ushbu nashrlarning eng mukammali mashhur olim Rizo Qulixon Hidoyat tomonidan 1890-1891- yillarda chop etilgan varianti hisoblanadi. 1935-yilga kelib Tehron universitetining professori, atoqli adib Said Nasafiy " Qobusnoma"ni Tehronda katta ilmiy sharh bilan nashrdan chiqaradi. Keyinchalik asar Bombeyda, Tehronda va Isfaxonda esa Fathulla ibn Amulla Vali Baxtiyoriy tomonidan chop tiladi. Shu tariqa "Qobusnoma" Gʻarb kitobxonlarining ham sevimli kitobiga aylandi. Endi asarning oʻzbek tilidagi nashrlariga eʼtibor qaratsak:

Asar oʻzbek tiliga birinchi marta buyuk oʻzbek shoiri va mutafakkiri Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan 1860- yilda tarjima qilindi. "Qobusnoma "ning oʻzbek tiliga tarjima qilinishida oʻsha davr Xorazm shahzodasi boʻlgan 16 yoshli Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910) ning ham xizmatlari beqiyosdir. Ogahiy valiahd Muhammad Rahimxon haqida gapirib, ushbu "Nasihatnomani" shahzodaning topshirigʻi bilan tarjima qilganini mamnuniyat bilan izhor qilib: " ...ul shahzodayi ozodaning nazari anvori mutolaasiga yetishdi va musaffo xotirigʻa uni Turkiy til bila tarjima qildirmoq tamannosi tushdi. Bu bandai faqir Muhammad Rizo Ogahiy bir ul janob majlisigʻa borib, duo sharoitin taqdinigʻa yetkurdim va ul janobning lozimul bashorati bila ham ul majlisning bir goʻshagosida oʻtirdim. Darhol menga necha turlik mehribonliklar koʻrguzib, mazkur "Nasihatnoma"ni ilkimga berib dediki: "Bul nusxani turkiy til bila tarjima qil, toki turk tavoyifining avomi ham pandlardan bahra olgʻay va bizning otimiz, sening soʻzing olam inqirozigʻacha zamon avroqida voqe va yodgor qolgʻay"- deb yozadi.

Ogahiy tarjimasining 2ta qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lib, hozirda ulardan biri O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida 1274/11 inventar raqam ostida, yana biri esa Sank-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomli Xalq kutubxonasida saqlanadi.

"Qobusnoma" ning o‘zbek tilida keng nashr qilinishiga atoqli olim, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Subutoy Dolimovning mehnati beqiyosdir. Olimning sa’y -harakatlari tufayli asar ilk bor 1965-yilda uncha katta bo‘lmagan nusxada o‘zbek kitobxonlari qo‘liga yetib bordi. Shundan so‘ng ushbu kitobga bo‘lgan talab yanada ortdi. Natijada bu nodir asar 1965, 1973, 1986-yillarda olim S. Dolimov tomonidan 3 marta nashr qilindi. Ushbu nashrlarning barchasida Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi asosiy manba sifatida olingan va hozirgi o‘zbek tiliga tabdil qilinib, katta so‘z boshi, tarixiy va filologik sharhlar hamda izohli lug‘at bilan o‘quvchilarga taqdim etilgan edi. Ammo shuni alohida ta’kidlash kerakki asarning sho‘rolar davrida S. Dolimov bosmadan chiqargan uchala nashrida ( 1965, 1973, 1986) ham 1-, 2-, 3-, 4- boblar umuman kiritilmagan, muqaddima va ba’zi boblar katta qisqartirishlarga uchragan ya’ni davr mafkurasiga moslashtirilgan edi. Bu esa asar fazilatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, shubhasiz. Umuman olganda olim S. Dolimov shunday qilishga majbur edi, chunki davr nuqtai nazaridan oladigan bo‘lsak, diniy xarakterdagi ushbu boblar ham nashrga kiritilganda kitob umuman nashr qilinmagan, o‘zbek kitobxonlari esa bu durdona asar bilan yaqindan tanishmagan bo‘lar edi. Mustaqillikka erishgandan so‘ng "Qobusnoma" ga bo‘lgan talabni inobatga olib pedagogika fanlari doktori Ulug‘bek Dolimov asarni qayta nashrga tayyorladi va 1994-yilda "Qobusnoma"ni muqaddima va hamma 44 bobnino‘z ichiga olgan holda nashrdan chiqardi. Ushbu nashrga ham Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Ogahiy tarjimasining qo‘lyozma nusxasi asos qilib olindi. Shu tariqa kitob to‘liq holda o‘zbek kitobxonlari qo‘liga yetib bordi. So‘nggi yillarda "Qobusnoma"ga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada kuchaydi. E’tiborli jihati shundaki, bu kitob yosh u-qarining sevimli kitobiga aylangan. Asarning bolalar uchun soddaroq tilda nashrdan chiqarilgan nusxalari ham mavjud. O‘quvchiga qulaylik yaratish maqsadida kitob deyarli har yili bir necha nusxalarda lotin hamda krill alifbosida nashrdan chiqariladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Unsur ul - Maoliy Kaykovus, "Qobusnoma". Toshkent "O‘qituvchi"-1986.
2. Kaykovus, "Qobusnoma". "Istiqlol", Toshkent -1994.
3. "Qobusnoma" , Kaykovus "Yangi asr avlodi" ,2016
4. K, "Qobusnoma". O‘qituvchi nashriyot matbaa ijodiy uyi, Toshkent- 2017.

Elektron saytlar:

[w.w.w.arxiv.uz](http://w.w.w.arxiv.uz)

[w.w.w.kh-davron.uz](http://w.w.w.kh-davron.uz)

[uz.wikipedia.org](http://uz.wikipedia.org)